



SOME CONSIDERATIONS ON THE UNIFICATION OF INVESTIGATIVE ACTIONS AND OPERATIONAL SEARCH MEASURES IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Habibullaev Dalerbek Bakhtiyor ugli

Tashkent State University of Law, Master's student, specialization in
Anti-Corruption and Compliance Control,

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025423>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2026

Accepted: 29th April 2026

Online: 30th April 2026

KEYWORDS

*Investigative actions,
operational search
measures, unification,
admissibility of evidence,
controlled integration,
criminal procedure,
procedural guarantees,
right to defence, criminal
justice.*

ABSTRACT

This article examines the unification of investigative actions and operational search measures in criminal proceedings from a theoretical and legal perspective. The study focuses on the legal nature of these two institutions, their interrelationship, and the prospects for their procedural convergence within a unified framework. A comparative analysis of the "separationist" and "integrationist" doctrines is conducted, and institutional models developed within the legal systems of the United States, Germany, France, Russia, and the United Kingdom are examined. Concurrently, existing lacunae in the current criminal procedure legislation of the Republic of Uzbekistan are identified. The research employs comparative legal, systemic, historical, and logical methods. The findings reveal that the procedural status of operational search results and the conditions governing their admissibility as evidence have not been comprehensively or systematically codified in national law. The "controlled integration" model is substantiated as the most viable approach for the Uzbek legal context, and the addition of a new fourth paragraph to Article 81 of the Code of Criminal Procedure is proposed. In conclusion, it is emphasized that any unification process must be carried out in strict conformity with the principles of fair trial, guarantees of the right to defence, and the admissibility of evidence.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО УНИФИКАЦИИ СЛЕДСТВЕННЫХ ДЕЙСТВИЙ И ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

Хабибуллаев Далербек Бахтиёр угли

Ташкентский государственный юридический университет, магистрант
специальности «Противодействие коррупции и комплаенс-контроль»

ORCID: 0009-0004-2513-458X. e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025423>



ARTICLE INFO

Received: 24th April 2026

Accepted: 29th April 2026

Online: 30th April 2026

KEYWORDS

Следственные
действия, оперативно-
розыскные
мероприятия,
унификация,
допустимость
доказательств,
контролируемая
интеграция, уголовный
процесс,
процессуальные
гарантии, право на
защиту, уголовное
правосудие.

ABSTRACT

В настоящей статье исследуется проблема унификации следственных действий и оперативно-розыскных мероприятий в уголовном судопроизводстве с позиций теории и права. Предметом исследования выступают юридическая природа указанных институтов, их соотношение, а также возможности их процессуального сближения в рамках единой системы. В работе проведён сравнительный анализ концепций «разграничения» и «интеграции», изучены институциональные модели, сложившиеся в правовых системах США, Германии, Франции, России и Великобритании, а также выявлены пробелы в действующем уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан. В ходе исследования применялись сравнительно-правовой, системный, исторический и логический методы. По результатам исследования установлено, что процессуальный статус результатов оперативно-розыскной деятельности и условия их использования в качестве доказательств не получили исчерпывающей и системной регламентации в национальном законодательстве. В качестве оптимальной модели применительно к условиям Узбекистана обоснована концепция «контролируемой интеграции», а также предложено дополнить статью 81 Уголовно-процессуального кодекса новой четвёртой частью. В заключение подчёркивается, что процесс унификации должен осуществляться при неукоснительном соблюдении принципов справедливого судопроизводства, гарантий права на защиту и допустимости доказательств.

**JINOYAT PROTSESSIDA TERGOV HARAKATLARI VA TEZKOR-QIDIRUV
TADBIRLARINI UNIFIKATSIYALASHTIRISH YUZASIDAN AYRIM
MULOHAZALAR**

Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens
nazorati mutaxassisligi magistranti

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20025423>



ARTICLE INFO

Received: 24th April 2026

Accepted: 29th April 2026

Online: 30th April 2026

KEYWORDS

Tergov harakatlari, tezkor-qidiruv tadbirlari, unifikatsiyalashtirish, dalillarning maqbulligi, nazoratli integratsiya, jinoyat protsessi, protsessual kafolatlar, himoya huquqi, jinoiy odil sudlov.

ABSTRACT

Ushbu maqolada jinoyat protsessida tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirish masalasi nazariy-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Tadqiqot maqsadi sifatida mazkur ikki institutning yuridik tabiati, ularning o'zaro nisbati va protsessual jihatdan yagona tizimga keltirish imkoniyatlari o'rganilgan. Tadqiqotda "ajratish" va "integratsiya" konsepsiyalari yordamida qiyosiy tahlil o'tkazilgan, AQSh, Germaniya, Fransiya, Rossiya va Buyuk Britaniya tajribasidagi institutsional modellar ko'rib chiqilgan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligidagi bo'shliqlar aniqlangan. Ish davomida qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, tarixiy va mantiqiy metodlardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarining protsessual maqomi va ulardan dalil sifatida foydalanish shartlari milliy qonunchilikda to'liq belgilanmaganligi aniqlangan. O'zbekiston sharoiti uchun eng maqbul yondashuv sifatida "nazoratli integratsiya" modeli asoslab berilgan hamda Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga qo'shimcha to'rtinchi qism kiritish taklif etilgan. Xulosa sifatida unifikatsiyalashtirish jarayoni adolatli sudlov, himoya huquqi kafolatlari va dalillarning maqbulligi prinsiplariga rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlangan.

Kirish

Hozirgi kunda jinoyat protsessual huquqi nazariyasi va amaliyotida tergov harakatlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini yuridik tabiati, ularning o'zaro munosabati va protsessual jihatdan yagona shaklga keltirish imkoniyatlari borasidagi masalalar dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ikki institutning – jinoyat-protsessual va tezkor-qidiruv faoliyatining – nazariy-huquqiy chegaralari bir-biridan aniq ajratib ko'rsatilgan bo'lsa-da, amaliyotda ularning funksional maqsadlari, ularni amalga oshirishdagi subyektlar tarkibi

hamda natijalari nuqtayi nazaridan ko'p jihatli uyg'unlik mavjudligi ma'lum bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat-protsessual qonunchilikni isloh qilish doirasida, xususan, Jinoyat-protsessual kodeksi (bundan buyon – JPK) qabul qilinishidan so'ng [1], ushbu masala yangi huquqiy kontekst kasb etdi. Biroq, tergov harakatlari (JPKning 96–197-moddalari) va tezkor-qidiruv tadbirlari (2012-yildagi "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun [2]) o'rtasidagi chegarani belgilaydigan huquqiy mexanizm, nazarimizda, hali ham munozaraligicha qolmoqda. Bu esa



sud muhokamasida tezkor ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanish jarayonida jiddiy amaliy muammolarga sabab bo'lmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirish masalasini nazariy-huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilish, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi bo'shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Material va metodlar

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, tarixiy va mantiqiy metodlar tashkil etadi. Manbalar sifatida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya, AQSH va boshqa davlatlarning tezkor-qidiruv va jinoyat protsessual qonunchiligi, BMT va Yevropa Kengashining tavsiyaviy hujjatlari, shuningdek, A.P.Guskova, V.I.Zajitskiy, Y.A.Dolya, V.Karimov, F.R.Gafurov, G.Z.To'laganova, B.B.Xidoyatov, D.B.Bazarova kabi milliy va xorijiy olimlarning ilmiy asarlari hamda tergov va sud amaliyoti ma'lumotlari xizmat qildi.

Muhokama va natijalar

Tergov harakatlari tushunchasi jinoyat-protsessual huquq nazariyasida o'ziga xos tarixiy evolyutsiyani boshidan kechirgan. Klassik doktrinada tergov harakatlari dastlab majburlov xususiyatiga ega va xususiy shaxslar huquqlarini cheklash bilan bog'liq protsessual vositalar majmui sifatida qaralgan (Strogovich M.S., 1968) [3]. Zamonaviy yondashuvda esa ushbu

tushuncha kengaytirilib, dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga yo'naltirilgan barcha ruxsat etilgan protsessual amallarni o'z ichiga oladi deb ta'riflanmoqda [4].

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligida tergov harakatlari tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq mazkur kodekning 85-95¹-moddalarining tahliliga muvofiq, tergov harakatlari dastlabki tergov va sud muhokamasida dalillarni to'plash va tekshirish maqsadida vakolatli shaxslar tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladigan protsessual harakatlardir. Ushbu ta'rifda uchta muhim element aks etadi: birinchidan – subyektlarning vakolati; ikkinchidan – maqsad (dalillarni to'plash va tekshirish); uchinchidan – belgilangan tartib (protsessual shakl). Mazkur uch komponent tergov harakatlarini boshqa protsessual amallardan (masalan, tezkor-qidiruv tadbirlaridan) ajratib turuvchi asosiy mezon sifatida qarash mumkin.

Tezkor-qidiruv tadbirlari esa o'zining huquqiy tabiati jihatidan tergov harakatlaridan tubdan farq qiladi. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 3-moddasiga binoan, tezkor-qidiruv faoliyati ushbu Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari (bundan buyon matnda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar deb yuritiladi) tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Professor V.I.Zajitskiyning ta'kidlashicha, tezkor-qidiruv tadbirlari



va tergov harakatlari o'rtasidagi asosiy farq ularning yuridik oqibatlarini va dalilii ahamiyatidir: tezkor-qidiruv natijalari sifatida olingan ma'lumotlar bevosita dalil vazifasini bajarmaydi, balki dalillarni izlash va topishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi ma'lumot sifatidagina xizmat qiladi [5]. Shu bilan birga, Y.A.Dolya ushbu konsepsiyani muayyan darajada munozarali deb hisoblaydi va ba'zi tezkor-qidiruv tadbirlari (xususan, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish va tezkor kuzatuv natijalari) tegishli protsessual rasmiylashtirish orqali dalilii ahamiyat kasb etishi mumkinligini isbotlaydi [6].

Milliy huquqshunos olimlarimiz orasida V.Karimov tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarini funksional nuqtayi nazardan "parallel" faoliyat tizimi deb ta'riflaydi, ularning maqsadi bir – jinoyatni fosh etish, lekin vositalari va huquqiy oqibatlari farqli ekanini alohida ta'kidlaydi [7]. F.R.Gafurov esa tezkor-qidiruv faoliyatini jinoyat protsessiga "yordamchi" tizim sifatida emas, balki mustaqil huquqiy institut sifatida baholaydi va ikki tizimni uyg'unlashtirish zarurligi haqida xulosa chiqaradi [8].

Mazkur nazariy munozaralar asosida muhim xulosa kelib chiqadi: tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari aslida yagona maqsadga – jinoyatni fosh etish va aybdorlarni javobgarlikka tortishga – xizmat qiladi. Biroq, ularni tartibga soluvchi huquqiy normalar ikkita turli huquq tarmog'ida mavjud bo'lib, ularni o'zaro

uyg'unlashtirish mexanizmlari hali ham mukammal ishlab chiqilmagan.

Demak, hozirgi huquqiy doktrinada tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini ajratish uchun qo'llaniladigan mezonlar (protsessual shakl, subyekt tarkibi, maxfiylik darajasi va dalilii ahamiyati) o'z ichida ziddiyatlar saqlamoqda va yagona konseptual tizimni talab qiladi.

Jinoyat-protsessual huquq nazariyasi hamda tezkor-qidiruv huquqi o'rtasidagi o'zaro nisbatni aniq va izchil belgilash unifikatsiyalashtirish konsepsiyasining metodologik negizi hisoblanadi. Mazkur masala ilmiy doktrinada, avvalo, yondashuv xarakteriga ko'ra ikki asosiy konseptual yo'nalish doirasida tahlil qilinadi: "ajratish" (separatsionizm) va "integratsiya" (unifikatsionizm) konsepsiyalari.

Ajratish konsepsiyasi tarafdorlari (M.A. Chelsov, I.M. Gutkin, L.N. Bashkatov) tergov harakatlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini mutlaqo turli huquqiy tabiatga ega mustaqil institutlar sifatida talqin qiladilar [9]. Ushbu yondashuvga ko'ra, mazkur institutlarning farqliligi bir qator fundamental mezonlar orqali namoyon bo'ladi.

Birinchi, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni cheklash mexanizmi hamda darajasidagi prinsipial farq mavjud: tergov harakatlari, qoida tariqasida, sud nazorati va sanksiyasi doirasida amalga oshirilsa, tezkor-qidiruv tadbirlarining muayyan qismi (ayniqsa, dastlabki bosqichdagi axborot to'plashga qaratilganlari) bunday protsessual kafolatlardan tashqarida amalga



oshirilishi mumkin. Bu esa huquqiy kafolatlar tizimidagi asimmetriyani yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, axborot olish usullari va shakllaridagi farq yaqqol namoyon bo'ladi: tergov harakatlari, odatda, ochiq, rasmiy va protsessual tartibga solingan shaklda o'tkaziladi (masalan, tintuv, ko'zdan kechirish), tezkor-qidiruv tadbirlari esa aksincha, yashirinlik, konspirativlik va operativlik tamoyillariga asoslanadi (masalan, tezkor kuzatuv, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish).

Uchinchidan, to'plangan ma'lumotlarning jinoyat-protsessual isbotlash tizimidagi maqomi va ulardan foydalanish chegaralari ham keskin farq qiladi: tergov harakatlari natijasida olingan ma'lumotlar bevosita dalil sifatida e'tirof etiladi, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari esa, odatda, dalil emas, balki dalillarni aniqlash va to'plashga xizmat qiluvchi, yo'naltiruvchi axborot sifatida baholanadi.

Integratsiya konsepsiyasi tarafdorlari (A.Y. Shumilov, V.A. Mixaylov, Y.V. Derishev) esa tezkor-qidiruv faoliyatini jinoyat protsessi tizimiga organik tarzda implementatsiya qilish zaruratini ilgari suradilar [10]. Ushbu yondashuv doirasida tergov va tezkor faoliyatning "funktional integratsiyasi" nazariyasi shakllantirilgan bo'lib, u mazkur ikki institutni mazmunan yagona isbotlash tizimining o'zaro bog'liq elementlari sifatida talqin qiladi.

Mazkur nazariyaga ko'ra, daliliy ahamiyat kasb etuvchi ma'lumotlarning

manbai hal qiluvchi ahamiyatga ega emas; aksincha, asosiy e'tibor ularning qonuniy yo'l bilan olinganligi, ishonchliligi va protsessual jihatdan tegishli tartibda rasmiylashtirilganligiga qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, ma'lumotlar tergov harakatlari yoki tezkor-qidiruv tadbirlari orqali olinganidan qat'i nazar, agar ular qonunchilikda belgilangan protsessual shaklda rasmiylashtirilsa, maqbul dalil sifatida e'tirof etilishi lozim.

Integratsion yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini jinoyat-protsessual isbotlash tizimiga transformatsiya qilishning aniq huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 81-moddasida dalillarning turlari aniq belgilangan bo'lib, tezkor-qidiruv faoliyati natijalari mustaqil dalil turi sifatida bevosita nazarda tutilmagan. Shu bilan birga, mazkur moddaning uchinchi qismi mazmunidan kelib chiqib, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari muayyan shartlar mavjud bo'lgan taqdirda dalil sifatida e'tirof etilishi mumkinligi anglashiladi. Xususan, bunday natijalar: (a) qonun talablariga muvofiq olingan bo'lishi; (b) jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq tekshirilgan va baholangan bo'lishi; (c) huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yoki boshqa ishtirokchilarning harakatlariga bog'liq bo'lmagan holda shaxsda jinoyat sodir etishga nisbatan oldindan shakllangan qasd mavjudligini tasdiqlashi lozim.

Nazarimizda, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini dalil sifatida tan olishning fundamental sharti sifatida



ularni olish jarayonida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari rioya etilishi qat'iy ta'minlanishi lozim. Xususan, shaxsning shaxsiy hayoti daxlsizligi, uy-joy daxlsizligi, yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi kabi asosiy huquqlari faqat qonun bilan belgilangan tartib va doirada, mutanosiblik hamda zaruriyat tamoyillariga rioya etilgan holda cheklanishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish jarayonida konstitutsiyaviy kafolatlarning buzilishi orqali olingan har qanday ma'lumotlar, hatto ular qonun jihatdan protsessual rasmiylashtirilgan bo'lsa ham, dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin emas. Bunday yondashuv nafaqat qonuniylik tamoyiliga, balki odil sudlovni ta'minlashga qaratilgan xalqaro standartlarga ham to'liq mos keladi.

Xorijiy davlatlar qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotida tergov harakatlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'zaro uyg'unlashtirishga oid turli institutsional modellar shakllangan bo'lib, ularni shartli ravishda "to'liq integratsiya", "cheklash" va "nazoratli integratsiya" modellariga tasniflash mumkin.

"To'liq integratsiya" modeli eng yaqqol tarzda AQSh huquqiy tizimida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv doirasida tergov va tezkor faoliyat o'rtasidagi an'anaviy institutsional chegaralar minimallashtirilgan bo'lib, ular yagona jinoyatni fosh etish va isbotlash tizimining funksional jihatdan o'zaro bog'liq elementlari sifatida

qaraladi. Xususan, Federal tergov byurosi (Federal Bureau of Investigation) va boshqa vakolatli organlar tergov hamda tezkor tadbirlarni yagona vakolat doirasida amalga oshiradi [11], bu esa protsessual standartlarning bixilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur modelning muhim xususiyati shundaki, axborot olish usulidan qat'i nazar, shaxsning konstitutsiyaviy huquqlariga daxl qiluvchi har qanday harakat yagona huquqiy standartlar – avvalo, sud nazorati va sanksiyasi talablariga bo'ysundiriladi. Bu holat *Kyllo v. United States* ishida o'z ifodasini topgan bo'lib, unda termik kuzatuv texnologiyasidan foydalanish konstitutsiyaviy jihatdan "tintuv" sifatida baholangan va shu munosabat bilan bunday harakatni amalga oshirish uchun sud ruxsati zarurligi e'tirof etilgan [12]. Mazkur pozitsiya tezkor-qidiruv va tergov harakatlarini yagona protsessual rejim doirasida tartibga solish konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi model – "cheklash" modeli – Germaniya va Fransiya jinoyat-protsessual tizimlariga xosdir. Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksi (StPO) doirasida tergov harakatlari qat'iy protsessual shaklga ega bo'lib, ular sud organlari, jumladan tergov sudyasi nazorati ostida amalga oshiriladi. Tezkor-qidiruv xarakteridagi ayrim tadbirlar, xususan, aloqa vositalari orqali nazorat qilish (§100a StPO), faqat oldindan berilgan sud sanksiyasi mavjud bo'lgan taqdirdagina amalga oshirilishi va protsessual dalil sifatida qabul qilinishi mumkin [13].



Uchinchi model – “nazoratli integratsiya” – Buyuk Britaniya jinoiy odil sudlov tizimida shakllangan. “Tergov vakolatlarini tartibga solish to‘g‘risida”gi 2000-yildagi Qonuni (Regulation of Investigatory Powers Act – RIPA) [14] tezkor-qidiruv tadbirlarini, jumladan kuzatuv, aloqa vositalarini tinglash va yashirin agentlar orqali axborot to‘plashni qonuniy jihatdan tartibga soladi hamda ularning natijalaridan sud muhokamasida foydalanish shartlarini aniq belgilaydi. Shu bilan birga, mazkur tizimda mustaqil nazorat instituti – Investigatory Powers Tribunal orqali tezkor-qidiruv faoliyati ustidan protsessual va institutsional nazorat ta‘minlanadi.

Xorijiy tajribani umumlashtirib, shuni ta‘kidlash lozimki, barcha yuqori rivojlangan huquqiy tizimlarda tezkor-qidiruv ma‘lumotlarini jinoyat protsessiga integratsiya qilish masalasi yechimini topgan – biroq yechim modellari turlichadir. O‘zbekiston Respublikasi uchun eng maqbul model – Germaniya tajribasiga asoslangan “nazoratli integratsiya” modeli bo‘lishi mumkin, chunki ushbu model tezkor-qidiruv ma‘lumotlarining dalil ahamiyatini ta‘minlash bilan birga, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini muhofaza qiladi.

O‘zbekiston sud amaliyotini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, ayrim jinoyat ishlarining bir qismida (giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatlar, poraxo‘rlik va korrupsiyaviy jinoyatlar, uyushgan jinoiy guruhlar bilan bog‘liq jinoyatlar) ayblov yagona yoki asosiy dalil sifatida tezkor-qidiruv ma‘lumotlariga tayanib tuziladi va ushbu ma‘lumotlar protsessual jihatdan to‘g‘ri

rasmiylashtirilmaganligi sababli sud tomonidan rad etiladi.

Yana bir muhim muammo tezkor-qidiruv tadbirlari doirasida amalga oshiriladigan “tekshirish uchun xarid qilish” hamda “nazorat ostida olish” kabi maxsus tadbirlar jarayonida tezkor xodimlar tomonidan shaxsni jinoyat sodir etishga undash (provokatsiya)ning huquqiy chegaralarini aniq belgilash zarurati bilan bog‘liq.

Mazkur masala xalqaro sud amaliyotida ham qat‘iy yondashuvni shakllantirgan. Xususan, Yevropa Inson Huquqlari Sudining “Ramanauskas Litva davlatiga qarshi” (Ramanauskas v. Lithuania) ishida shu alohida ta‘kidlanganki, agar jinoyat davlat agentining faol, tashabbuskor va yo‘naltiruvchi ishtirokisiz sodir etilmagan bo‘lsa, ya‘ni shaxs jinoyatga sun‘iy ravishda jalb etilgan bo‘lsa, bunday yo‘l bilan olingan barcha dalillar adolatli sudlov tamoyiliga zid deb topilishi lozim [15].

Mazkur yondashuvning mohiyati shundan iboratki, tezkor-qidiruv xodimining roli jinoyatni “yaratish” emas, balki allaqachon shakllangan jinoiy niyatni aniqlash va hujjatlashtirish bilan cheklanishi kerak. Aks holda, davlat organlari tomonidan jinoyatning provokatsion yo‘l bilan yuzaga keltirilishi adolatli sudlov prinsipini buzadi hamda dalillarning maqbulligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy muammolar, xorijiy tajriba va amaliy tahlil asosida O‘zbekiston Respublikasi JPKning 81-moddasini quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir:



“Agar tezkor-qidiruv tadbirlari davomida vakolatli xodim tomonidan shaxsni jinoyat sodir etishga bevosita yoki bilvosita undash amalga oshirilgan bo'lsa va mazkur jinoyat ushbu undash yoki rag'batlantirish ta'sirida sodir etilganligi aniqlansa, bunday tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan faktik ma'lumotlar dalil sifatida tan olinmaydi va ulardan jinoyat ishini isbotlash jarayonida foydalanishga yo'l qo'yilmaydi”.

Xulosalar

Ushbu tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy hamda amaliy tahlil natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlari huquqiy tabiatiga ko'ra mustaqil institutlar hisoblansa-da, ularning funksional maqsadi – jinoyatni aniqlash, fosh etish va isbotlashga qaratilganligi – ushbu ikki faoliyat turi o'rtasida institutsional va funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa ularni yagona konseptual yondashuv doirasida uyg'unlashtirish zaruratini obyektiv ravishda asoslaydi.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi tezkor-qidiruv

faoliyati natijalarining protsessual maqomi va ulardan dalil sifatida foydalanish shartlarini to'liq, aniq va tizimli tarzda belgilab bermagan. Natijada, huquqni qo'llash amaliyotida turli talqinlar yuzaga kelib, bu holat sud qarorlarining barqarorligiga, jinoiy ta'qib samaradorligiga hamda taraflarning protsessual tengligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Uchinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy huquqiy tizimlarda mazkur muammo turli modellar orqali hal etilgan bo'lib, ular ichida O'zbekiston sharoiti uchun eng maqbul yondashuv – “nazoratli integratsiya” modelidir. Ushbu model tezkor-qidiruv ma'lumotlarini sud yoki prokuror nazorati asosida belgilangan protsessual shartlar bajarilgan taqdirda dalil sifatida legalizatsiya qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, tergov harakatlari va tezkor-qidiruv tadbirlarini unifikatsiyalashtirish jinoiy odil sudlov samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlardan biri bo'lsa-da, bu jarayon adolatli sud muhokamasi huquqi, himoya huquqining kafolatlari hamda dalillarning ishonchliligi va maqbulligi prinsiplariga qat'iy rioya etilgan holda amalga oshirilishi lozim.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi - <https://lex.uz/docs/-111460>
2. O'zbekiston Respublikasi 25.12.2012-yildagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida” O'RQ-344-sonli Qonuni - <https://lex.uz/docs/-2107763>
3. Строгович М.С. Курс советского уголовного процесса. Т. 1. – М.: Наука, 1968. – С. 289–291.



4. Jinoyat-protsessual huquq: Darslik / Yuridik fanlar doktori, professor M. A. Rajabova tahriri ostida (To'ldirilgan va qayta ishlangan uchinchi nashri). – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – 732 b.
5. Жажицкий В.И. Результаты оперативно-розыскной деятельности в уголовном судопроизводстве: теория и практика. – СПб.: Юридический центр Пресс, 2006. – С. 47–52.
6. Доля Е.А. Использование результатов оперативно-розыскной деятельности в доказывании по уголовным делам // Российская юстиция. – 1995. – №5. – С. 38–40.
7. Каримов Ваҳобжон, Тезкор-қидирув фаолияти: дарслик / В. Каримов – Тошкент, Lesson press, 2021. – 475 б
8. Gafurov, F. (2024). Bojxona sohasidagi jinoyatlarni fosh etishda o'tkaziladigan kriminalistik ekspertizalarning o'ziga xos xususiyatlari. Journal of Research and Development, 2(4), 31–40. Retrieved from <https://imfaktor.com/tjrd/article/view/1231>
9. Чельцов М.А. Советский уголовный процесс. – М.: Госюриздат, 1962. – С. 211–214.
10. Шумилов А.Ю. Оперативно-розыскная деятельность в схемах и определениях. – М.: Щит-М, 2010. – С. 133–137
11. <https://www.usa.gov/agencies/federal-bureau-of-investigation>
12. *Kyllo v. United States*, 533 U.S. 27 (2001). United States Supreme Court. – URL: <https://www.supremecourt.gov>
13. Strafprozessordnung (StPO) in der Fassung der Bekanntmachung vom 7. April 1987, zuletzt geändert durch Artikel 2 des Gesetzes vom 25. Juni 2021. §§100a–100j.
14. Regulation of Investigatory Powers Act 2000, c. 23. United Kingdom. Part I, Chapter I.
15. European Court of Human Rights. *Ramanauskas v. Lithuania*, Application no. 74420/01. Grand Chamber Judgment of 5 February 2008. Para. 55–61.